



BLOG JURNALISTIKASI ORQALI MILLIY MEROSEN TARG'IB
QILISHNING AHAMIYATI

Parpiyev Ma'murjon

O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya. Mazkur tezisda blog jurnalistikasi imkoniyatlari orqali milliy madaniy merosni targ'ib qilish masalasi yoritiladi. Shuningdek, tezisda bloglar orqali milliy merosni ommalashtirishning usullari, bu boradagi amaliy misollar va zamonaviy tendensiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Milliy madaniy meros, madaniy qadriyatlar, raqamli axborot maydoni, ommalashtirish, zamonaviy kommunikatsiya vositalari, yoshlar va milliy ong, internet platformalari.

Abstract. This thesis explores the promotion of national cultural heritage through the potential of blog journalism. It also analyzes the methods of popularizing cultural heritage via blogs, supported by practical examples and modern trends in this field.

Key words: Blog journalism, national cultural heritage, cultural values, digital media space, popularization, modern communication tools, youth and national identity, online platforms.

Zamonaviy davrda raqamlashtirish jarayonlari hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kundalik turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan. Endilikda ko'pchilik insonlar virtual makonda faol bo'lishni tabiiy ehtiyoj sifatida qabul qilmoqda. Bu esa raqamlashtirilgan hayot sharoitida jamiyatda yuz berayotgan chuqur o'zgarishlarning yaqqol ko'rinishidir. Shubhasiz, ushbu jarayon ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda[1]. An'anaviy jurnalistika o'z shakl va uslublarini o'zgartirishga majbur bo'lmoqda. Endi axborotni faqat jurnalistlar emas, balki oddiy foydalanuvchilar ham tezkorlik bilan uzatish, sharplash va baholash imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Global texnologik tendensiyalar jurnalistikani yangi bosqichga olib chiqmoqda.

So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar va bloglar ommalashib, kommunikatsiyaning yangi shakli sifatida shakllandi. Tadqiqotchi D.S. Mamutovaning “Блоги как форма общественной коммуникации” nomli maqolasida ta'kidlanishicha, bloglar an'anaviy ommaviy axborot vositalariga jiddiy raqobatchi bo'lmoqda. Bunga bloglarning erkin fikr ifodasi, voqealarga tezkor munosabat, shaxsiy yondashuv va senzuraning deyarli yo'qligi sabab bo'lmoqda[2].





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Bugungi kunda bloglar mustaqil axborot maydoniga aylangan bo‘lib, ularda ijodiy yondashuv va shaxsiy pozitsiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ilgari axborotlar asosan davlat tashkilotlari, tijorat tuzilmalari va professional jurnalistlar tomonidan shakllantirilgan bo‘lsa, hozirgi davrda bu vazifani oddiy fuqarolar ham bajarmoqda. Har bir blog muallifi o‘z dunyoqarashi, hissiyoti va ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib kontent yaratadi. Bu esa zamonaviy jamiyatning rang-barangligini, ijtimoiy ongdagi qarashlar xilma-xilligini va milliy voqelikning turfa ko‘rinishlarini aks ettiruvchi umumiy axborot makonini shakllantiradi. Blogerlik faoliyati ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va onlayn platformalar orqali amalga oshirilayotgani sababli, u jurnalistikada yangi yo‘nalish blog jurnalistikasi sifatida shakllanmoqda[3]. Blog jurnalistikasi professional OAV bilan raqobatlasha oladigan darajada rivojlandi. U orqali axborotga tezkor munosabat bildirish, shaxsiy fikrni ochiq ifodalash, muammoga badiiy yoki hissiy yondashish, auditoriya bilan bevosita aloqa o‘rnatish imkoniyati mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, “**Inson ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo‘lmasa, u jamiyatda mavjud emas**”, degan ibora bugungi medialashgan hayotda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday jurnalist, bloger yoki axborot ishlab chiqaruvchi raqobatbardosh bo‘lishni istasa, u internet platformalaridan samarali foydalanishi, auditoriya bilan doimiy aloqada bo‘lishi, dolzarb mavzular bo‘yicha o‘z pozitsiyasini bildira olishi zarur[4]. Bu nafaqat uning axborot maydonidagi ishtirokini mustahkamlaydi, balki uning kasbiy nufuzini, ishonchliliginu va ijtimoiy ta’sir kuchini oshiradi. Shunday qilib, blog jurnalistikasi nafaqat yangi axborot shakli, balki zamonaviy ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida ham maydonga chiqmoqda.

Bugungi raqamlashtirilgan axborot makonida blog jurnalistikasi nafaqat shaxsiy fikrni ifoda etish vositasi, balki ijtimoiy ong va madaniy merosni shakllantirishda muhim rol o‘ynayotgan ommaga ta’sirchan axborot vositasiga aylangan. Bloglar orqali milliy urf-odatlar, qadriyatlar, tarixiy obidalar, xalq og‘zaki ijodi namunalarini keng jamoatchilikka yetkazish, ularni zamonaviy formatda talqin etish va yosh avlod ongida milliy g‘urur va madaniy ongni shakllantirish mumkin.

Shu bois, blog jurnalistikasi milliy merosni asrash, ommalashtirish va targ‘ib qilishda muhim kommunikatsion vosita sifatida qaralishi lozim. Ushbu yo‘nalishda blogerlar, jurnalistlar va madaniyat sohasi mutaxassislarining hamkorligi milliy o‘zlikni saqlash va uni global miqyosda tanitishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.



**TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA
INNOVATSION G‘OYALAR**



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Нигматулина К., Корнеев М., Пуля. В. Тренды новых медиа-2020. URL: <https://jrnlst.ru/trends2020> (дата обращения: 26.01.2020).
2. Мамутова Д. С. Блоги как форма общественной коммуникации. URL: <http://www.vestnik.vsu.ru/pdf/phylolog/2012/02/2012-02-46.pdf> (дата обращения: 26.02.2020).
3. Самые лучшие и популярные сайты социальных сетей. URL: <https://relevant.ru/blog/1081/> (дата обращения: 30.01.2020).
4. Соломатин Д. Д., Соловьев В. А. Блогинг как катализатор журналистики в медиасистеме России. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/blogging-kak-katalizator-zhurnalistiki-v-mediasisteme-rossii/viewer> (дата обращения: 27.02.2020).

